

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
QASHQADARYO VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI**



**NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN
QONUNCHILIKDA BELGILANGAN
IMTIYOZ VA KAFOLATLAR BO'YICHA
QO'LLANMA**



Qarshi – 2023

Kirish

Inson huquqlari, jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlari teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishlarini ta’minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirok etishlari uchun bugungi kunda mamlakatimizda barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlar bo‘yicha qo‘llanmaning ishlab chiqilishidan asosiy maqsad nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda ularning fuqarolik, mulkiy, mehnat qonunchiligiga oid tushunchalarga ega bo‘lishlariga ko‘maklashishdan iborat.

Zero, huquqni bilash yashashni osonlashtiradi, muammolarni oldini oladi, xatto foyda keltiradi.

Mazkur qo‘llanma zarur vaqtarda beminnat huquqiy maslahatchingiz bo‘lishiga umid qilamiz.

*Qashqadaryo viloyat adliya
boshqarmasi jamoasi.*

— *Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir.*

— *Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shartsharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sinqiniksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi.*

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 57-moddasi.)

I BOB. ASOSIY TUSHUNCHALAR



- **Nogironligi bo‘lgan shaxs** — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to‘liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxs;
- **Nogironlik belgisiga ko‘ra kamsitish** — maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviyligining sohada yoki boshqa sohada o‘zgalar bilan nogironligi bo‘lgan shaxslarning teng huquq va erkinliklarini e’tirof etishni yoki ro‘yobga chiqarishni inkor qilishdan iborat bo‘lgan, nogironlik sababli har qanday ajratib qo‘yish, istisno etish, chetlatish, cheklash;
- **Nogironligi bo‘lgan bolalar** (bola) — barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatilishiga hamda o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar;
- **Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish** — hayot faoliyatiga doir cheklarni yengib o‘tish, ularning o‘rnini qoplash (kompensatsiya qilish) uchun nogironligi bo‘lgan shaxslarga shart-sharoitlarni ta’minlaydigan hamda ularga jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;
- **Protez-ortopediya moslamalari** — yo‘q bo‘lgan qo‘l-oyoqlarning yoki tana boshqa qismlarining o‘rnini bosish uchun mo‘ljallangan, organizmning buzilgan yoki yo‘qolgan funksiyalarini kompensatsiya qiluvchi moslamalar;
- **Surdotarjima** — biror-bir tildan daktil alifbosi yordamida va (yoki) imoshora tilida tarjima qilish usuli;
- **Surdotexnika vositalari** — eshitishdagi nuqsonlarni tuzatish va kompensatsiya qilish uchun texnik vositalar, shu jumladan aloqani va axborot uzatishni kuchaytiruvchi vositalar;
- **Tiflotexnika vositalari** — nogironligi bo‘lgan shaxslarning ko‘rishidagi nuqsoni natijasida yo‘qolgan imkoniyatlarini tiklash va kompensatsiya qilishga qaratilgan vositalar;
- **Shaxs hayot faoliyatining cheklanganligi** — shaxsning o‘ziga o‘zi xizmat qilish, harakatlanish, yo‘lni topa olish, muloqot qilish, o‘z xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek o‘qish va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to‘liq yoxud qisman yo‘qotganligi.

II BOB. NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING MULKIY HUQUQLARI



1.Nogironligi bo‘lgan shaxslarning auksion orqali yer uchastkasi sotib olish xarajatlarining bir qismi qoplab beriladi.

➤ Nizomga ko‘ra, yer uchastkasini auksion orqali sotib olish xarajatlaridan kelib chiqqan holda, oilasi tarkibida nogironligi bo‘lgan shaxslar sonidan qat’i nazar, BHMning 100 baravarigacha (30 mln so‘mgacha) miqdorda bir martalik to‘lov ajratiladi.

Bunda xarajatlar ushbu miqdordan yuqori bo‘lgan hollarda BHMning 100 baravarigacha (30 mln so‘mgacha) bo‘lgan qismi qoplab beriladi.

Imtiyozli toifadagi shaxslar quyidagi mezonlarga muvofiq kelishi kerak:

- ✓ oxirgi 12 oy davomida o‘zi yoki oila a’zolari nomida yashash uchun mo‘ljallangan turar joyi yoki yer uchastkasi mavjud bo‘lmasligi;
- ✓ yer uchastkasi oxirgi 3 oy ichida auksion orqali xarid qilingan va O‘zbekiston hududida bo‘lishi;
- ✓ nogironligi bo‘lgan shaxs deb topilgan, shuningdek, “Temir daftар”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ning birida turgan bo‘lishi.

➤ Imtiyozli toifadagi shaxs auksion orqali yer uchastkasi sotib olgandan boshlab 3 oy ichida o‘z hududidagi tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga murojaat qilishi lozim (ushbu muddatdan kechikib berilgan arizalar ko‘rib chiqilmaydi).

➤ Mablag‘ ajratish to‘g‘risida belgilangan tartibda qaror qabul qilingandan so‘ng 5 ish kunida imtiyozli toifadagi shaxslarning arizasida ko‘rsatilgan bank plastik hisobvarag‘iga mablag‘ o‘tkazilishi ta’milnadi.



Asos: Vazirlar Mahkamasining “Nogironligi bo‘lgan shaxsning va tarkibida nogironligi bo‘lgan shaxs bor oilaning elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Qarori (122–son, 23.03.2023 y.)

NAMUNAVIY ARIZA

1. _____
familiyasi _____ *ismi* _____ *otasining ismi* _____

2. Manzil:

_____ *tuman (shahar)* _____ *hudud*
MFY (QFY) nomi _____ *nomi* _____ *nomi*

3. Ariza beruvchining shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR):

4. O‘zining yoki oilasi tarkibida nogironligi bo‘lgan shaxsnинг JShShIRi:

5. Bank plastik karta hisobvarag‘i:

_____, ____ / _____

6. Elektron onlayn-auksion orqali sotib olingan yer uchastkasining narxi: _____ mln so‘m

7. Bog‘lanish uchun ma’lumot:

tel: _____

elektron pochta _____

imzo

ariza berilgan sana

Nogironligi bo‘lgan shaxsning va tarkibida nogironligi bo‘lgan shaxs bor oilaning elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplab berish

SXEMASI

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	Nogironligi bo‘lgan shaxs va tarkibida nogironligi bo‘lgan shaxs bor oilaning a’zosi (keyingi o‘rinlarda — imtiyozli toifadagi shaxslar)	Elektron onlayn-auksion vositasi orqali sotib olingan yer uchastkasi xarajatlarini qoplab berish yuzasidan o‘z hududida tashkil etilgan Nogironligi bo‘lgan shaxsning va tarkibida nogironligi bo‘lgan shaxs bor oilaning elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplab berish to‘g‘risidagi murojaatlarni ko‘rib chiqish va hal etish komissiyasiga (keyingi o‘rinlarda — Komissiya) ariza bilan murojaat qiladi.	O‘z xohishiga ko‘ra uch oy ichida
2-bosqich	Tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi — Komissiya ishchi organi	Bir martalik to‘lov yuzasidan ariza bilan murojaat qilgan imtiyozli toifadagi shaxslarning ro‘yxatini shakllantiradi. Bir martalik to‘lov yuzasidan murojaat qilgan imtiyozli toifadagi shaxslarning arizasini va tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda shakllantirilgan ro‘yxatni Komissiyasiga taqdim etadi.	Har oyning 20-sanasiga qadar
3-bosqich	Komissiya	Ro‘yxat bo‘yicha imtiyozli toifadagi shaxslarning mezonlarga muvofiqligini o‘rganib chiqadi hamda moliyalashtirish manbaini aniqlaydi. Bir martalik to‘lov ajratish maqsadida moliyalashtirish manbaini ko‘rsatgan holda, imtiyozli toifadagi shaxslar ro‘yxatini tegishliliqi bo‘yicha «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» jamg‘armasining Vasiylik kengashlari hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashiga kiritadi.	Har oyning 25-sanasiga qadar
4-bosqich	«Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» jamg‘armasining Vasiylik kengashlari hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi	«Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va «Saxovat va ko‘mak» jamg‘armalari hisobidan imtiyozli toifadagi shaxslarga bir martalik to‘lov uchun mablag‘lar ajratish to‘g‘risida navbatdagi yig‘ilishlarda belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi.	Har oyning 30-sanasiga qadar

5-bosqich	Tuman (shahar) hokimligi	«Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» jamg‘armalarining Vasiylik kengashlari hamda «Saxovat va ko‘mak» jamg‘armasi bo‘yicha xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi qarorlariga muvofiq «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va «Saxovat va ko‘mak» jamg‘armalari hisobidan imtiyozli toifadagi shaxslarga bir martalik to‘lovni ularning bank plastik hisobvarag‘iga o‘tkazilishini ta’minlaydi.	5 ish kunida
6-bosqich	Komissiya	Bir martalik to‘lov o‘tkazib berilganligi haqida har bir imtiyozli toifadagi shaxsga yozma xabarnoma yuboradi.	2 ish kunida



2. Mehmonxonalarda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun alohida sharoitga ega xona tashkil etiladi.

Qonun bilan nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari belgilab berildi.

Qonunga asosan tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari faoliyati yanada takomillashtirildi.

Unga ko‘ra, tekshiruvdan o‘tkazish tibbiy hujjatlar qabul qilingan kundan e’tiboran 10 kun ichida bepul amalga oshiriladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va ularning huquqlarini kafolatlashga oid qator masalalar Qonun darajasida belgilandi. Jumladan:

■ Tashkilotlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning sport inshootlari, dam olish, shuningdek turistik ob’ektlardan bepul foydalanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi;

■ Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarga, fuqarolarga bepul tibbiy yordam ko‘rsatishning davlat kafolatlari dasturi doirasida malakali tibbiy yordam ko‘rsatilishi bo‘yicha choralar ko‘radi;

■ Davlat nogironligi bo‘lgan bolalarning bepul umumiyoq o‘rta, maktabdan tashqari, o‘rta maxsus va professional ta’lim olishini kafolatlaydi;

■ Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun oliy ta’lim muassasalarida davlat granti asosida abiturientlarni qabul qilish umumiyoq sonining 2 foizi miqdorida qo‘srimcha qabul kvotasi ajratiladi;

■ Nogironligi bo‘lgan shaxslar sanatoriylarida bepul sog‘lomlashtirish, shuningdek dori vositalari, nogironligi bo‘lgan shaxslarni parvarish qilish uchun mo‘ljallangan tibbiy buyumlar va nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanish huquqiga ega;

■ Nogironligi bo‘lgan shaxslar imtiyozli shartlar asosida ijtimoiy uy-joy olish huquqiga ega;

■ Mehmonxonalarda kamida bitta xona o‘rindiqli aravachadan foydalanadigan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay tarzda jihozlanishi, shuningdek eshitish va ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun displeylar hamda ovozli qurilmalar o‘rnatalishi ta’minlanishi shart;

■ Mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironligi bo‘lgan shaxslarga mahalliy budget mablag‘lari hisobidan qo‘srimcha ijtimoiy kafolatlar belgilash huquqiga ega.



Asos: O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 15 oktabr kunida "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"gi O‘RQ-641-son Qonun.

III BOB. NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING KASBIY HUQUQLARI



3. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni kasbhunarga o‘rgatuvchi “imkoniyatlar markazi” tashkil etildi.

Qarorga ko‘ra, yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar:

➤ ko‘rgazma yarmarkasi doimiy tarzda o‘tkaziladi;

➤ hajmi va texnik parametrlari to‘g‘risidagi axborotlar 2022 yil 15 noyabrga qadar Elektron kooperatsiya portaliga joylashtiriladi;

➤ 2023 yil 1 yanvarga qadar yagona reestri yuritilishi tashkil etiladi. 2023 yil 1 yanvardan boshlab davlat xaridlari doirasida tegishli tashkilotlar xarid predmeti hajmining kamida 10 foizi miqdorida o‘z hududida Reestrga kiritilgan korxonalar ishlab chiqargan tovarlarni sotib oladi.

2022 yil davomida tajriba tariqasida Nukus va Toshkent shaharlarida hamda 2023 yildan boshlab qolgan hududlarda “Imkoniyatlar markazi” faoliyati tashkil etiladi.

“Imkoniyatlar markazi”:

- nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maydoni sifatida faoliyat yuritadi;
- nogironligi bo‘lgan shaxslarning qiziqishidan kelib chiqqan holda kasbhunarga o‘qitishga ko‘maklashadi.



Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 oktabr kunida “Nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyatlariga tegishli tashkilotlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashishga oid qo‘sishicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-390-sون Qarori.

4. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilganlarga subsidiya berish tartibi belgilangan



■ Nizomga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilganlarga (budget tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir xodim uchun BHMning 1,5 baravari (405 ming so‘m) miqdorida subsidiya beriladi.

■ Bunda ish beruvchi nogironligi bo‘lgan shaxsni ishga qabul qilgandan keyin subsidiya olish uchun Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda murojaat qiladi.

■ Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazi hujjatlarni 3 ish kunida o‘rganib chiqadi va o‘rganish natijalariga ko‘ra subsidiya ajratish (ajratishni rad etish) to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

■ Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, subsidiya har oy uchun keyingi oyda (6 oy davomida) ish beruvchiga to‘lab beriladi.

■ Har oy yakunida ishga qabul qilingan nogironligi bo‘lgan shaxslarning haqiqatdan ishlayotganligi monitoring qilib boriladi.



Asos: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 aprel kunida “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-203-son qarori.

5. O‘zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo‘lgan bolaning qonuniy vakiliga har oyda 500 ming so‘m miqdorida nafaqa to‘lovi (parvarishlash nafaqasi) joriy etiladi.



Farmonga ko‘ra, 2022 yil 1 apreldan:

- mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi hamda ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori qo‘srimcha to‘lovni hisobga olgan holda – 440 000 so‘mdan 622 000 so‘mgacha oshiriladi;
- o‘zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo‘lgan bolaning qonuniy vakiliga har oyda 500 ming so‘m miqdorida nafaqa to‘lovi (parvarishlash nafaqasi) joriy etiladi.

Parvarishlash nafaqasi Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga murojaat asosida budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan tayinlanadi va to‘lanadi.

Farmonga ko‘ra, 2022 yil 1 apreldan o‘zgalar parvarishiga muhtoj bolalar to‘g‘risidagi, 2022 yil 1 oktabrdan o‘zgalar parvarishiga muhtoj bolalarning qonuniy vakillari to‘g‘risidagi ma’lumotlar budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga elektron taqdim etib boriladi.

❖ 2022 yil oktabrdan 18 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolalar va odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka chalingan 18 yoshgacha bolalarga to‘lanadigan nafaqalar hamda parvarishlash nafaqasi fuqarolardan qo‘srimcha hujjatlarni talab etmagan holda “proaktiv shakl”da tayinlanadi.

Farmon bilan shuningdek, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning kasalliklari ro‘yxati (34 ta) tasdiqlandi.

O‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning kasalliklari ro‘yxati

- ! 1. Bosh va orqa miya jarohatlari hamda tug‘uruq jarohatlari oqibatida bosh va orqa miya qon aylanishining og‘ir buzilishlari, periventrikulyar leykomalyatsiya, markaziy asab tizimining virusli infeksiyalari natijasida chuqur harakatlar buzilishi bilan asoratlangan holatlar.
- ! 2. Jarrohlik amaliyotidan keyingi holatlar: ichki a’zolar, suyak-mushak tizimi, miya qutisi, qulqoq-tomoq-burun a’zolari va suyak-mushak tizimining tug‘ma anomaliyasi (rivojlanish nuqsonlari va deformatsiyalarning og‘ir shakllari) bilan tug‘ilgan chaqaloqlarda uzoq nazoratni va korreksiyani talab qiladigan holatlar.
- ! 3. Biriktiruvchi to‘qimaning tizimli shikastlanishi: tizimli qizil yugurik, dermatopolimiozit, tizimli boshlanuvchi yuvenil artriti, yuvenil revmatoid artriti va tugunchali periarteritning og‘ir turlari.
- ! 4. serebral falaj va boshqa falajli sindromlar (istisno: G81.0-G81.9-gemiplegiya, G83.1-oyoqlar monoplegiyasi va G83.2-ko‘l monoplegiyasi).
- ! 5. Bolalar serebral falaji, periventrikulyar leykomalyatsiya. (Istisno: G80.2-bolalar gemiplegiyasi).
- ! 6. Tez-tez qaytalanuvchi epilepsiyaning shaxs o‘zgarishi va aql pastligi bilan kechishi.
- ! 7. Kelib chiqishi har xil bo‘lgan aqliy zaiflikning chuqur va og‘ir turi. Autizm.
- ! 8. Surunkali og‘ir shizofreniya va boshqa ruhiy buzilishlar, xulq-atvor buzilishlari.
- ! 9. Poliomielit kasalligining og‘ir asoratlari.
- ! 10. O‘tkir bo‘shashgan shol.
- ! 11. Tug‘ma gidrotsefaliya (kuchli miya qutisi gipertenziyasi, tez-tez takrorlanuvchi talvasa xurujlari, ko‘z tubidagi asoratlari, parezlar, plegiyalar, aqliy, nutqiy, motor rivojlanishida orqada qolishlar).
- ! 12. Ko‘rish o‘tkirligining yaxshi ko‘radigan ko‘zda 0 — 0,03 ga (korreksiya bilan) pasayishi.
- ! 13. Tug‘ma va orttirilgan tusdagi surunkali bronx-o‘pka kasalliklarida II-III darajali turg‘un nafas yetishmovchiligi. Astmaning gormonga bog‘liq asoratli turi.
- ! 14. Tez-tez qaytalanuvchi oqma yaralar va funksional buzilishlar bilan kechadigan suyak va boshqa tayanch tizimi sili, silga qarshi dori vositalariga turg‘unligi bo‘lgan, davolanish natija bermagan va palliativ davoga muhtoj bo‘lgan sil kasalliklari; bosh miya faoliyatining keskin buzilishi bilan kechadigan sil meningoensefaliti, jarrohlik yo‘li bilan davolanishga hayotiy qarshi ko‘rsatmalari bo‘lgan, keskin funksional buzilishlar bilan kechadigan bosh va orqa miya tuberkulemlari.
- ! 15. Jigarning tug‘ma, irsiy, orttirilgan kasalliklarida kuchli turg‘un qayta tiklanmaydigan funksional buzilishlar.

- ! 16. Surunkali buyrak yetishmovchiligining III bosqichi.
- ! 17. Inkurabel yomon sifatli o'smalarning og'ir shakli.
- ! 18. Bir necha bor jarrohlik amaliyotidan keyin tuzatib bo'lmaydigan doimiy najas va siydikni tuta olmaslik, yo'g'on, to'g'ri ichak va orqa chiqaruv teshigining tug'ma va orttirilgan oqmalari, siydik tanosil a'zolari oqmalari.
- ! 19. Suyak-mushak tizimi va biriktiruvchi to'qima kasalliklarida yaqqol qayta tiklanmaydigan funksional buzilishlar:
 - ! bir yoki ikkala oyoq va qo'llarda tug'ma va orttirilgan og'ir darajadagi skelet deformatsiyalari va amputatsion cho'ltoqlar;
 - ! tayanch-harakat apparatining rivojlanish nuqsonlari tufayli mustaqil harakat va o'z-o'ziga xizmat qilish imkoniyati yo'qligi.
- ! 20. Qon aylanish tizimi tug'ma anomaliyalari (rivojlanish nuqsonlari, ma'lum bir yoshgacha operatsiya qilib bo'lmaydigan holatlar, yurak va yirik qon tomirlarida o'tkazilgan jarrohlik amaliyotidan keyingi holatlar) ifodalangan darajadagi funksiya buzilishlari bilan.
- ! 21. Ichki sekresiya bezlari funksiyasining yetishmovchiligi:
 - ! qandli diabetning 1 turi (insulinga bog'liq qandli diabet);
 - ! qandsiz diabet (pitiutrin-rezistent shakli), Itsengo-Kushinga sindromi, surunkali buyrak usti bezlarining boshqa buzilishlari (Adisson krizi), total adrenoektomiyadan keyingi holat, buyrak usti bezi po'stlog'inining og'ir tug'ma disfunksiyasi, somatotrop yetishmovchilik (gipofizar nanizm), tug'ma va orttirilgan gipotireozning og'ir shakli, gipoparatireoz, tireotoksikoz.
- ! 22. Miopatiyalar, orqa mushak atrofiyasi, tugallanmagan osteogenez, irsiy neyrodegenerativ kasalliklar — leykodistrofiya, gepatolentikulyar degeneratsiya. Ichki a'zolar va tizimlarning og'ir buzilishlari, psixomotor va nutqiy rivojlanishdagi buzilishlar bilan kechuvchi irsiy raxitsimon kasalliklar, Marfan sindromi va Elers-Danlo sindromi.
- ! 23. Ko'plab tug'ma nuqsonlar, ichki a'zolar faoliyatining buzilishlari, psixomotor va nutqiy rivojlanishda orqada qolish bilan kechuvchi xromosom buzilishlar: Klaynfelter sindromi, Shershevskiy-Terner sindromi, Patau sindromi, Edvards sindromi va boshqalar.
- ! 24. O'tkir va surunkali leykozlar, gemoblastozlar, xavfli gistiotsitoz, mielodisplastik sindromlar.
- ! 25. Qon ishlab chiqarish tug'ma va orttirilgan aplastik anemiyalari.
- ! 26. Og'ir gemorragik sindrom bilan kechuvchi, doimo qaytalanib turuvchi surunkali trombotsitopatiyalar, irsiy va orttirilgan shakllari, yiliga 3 marotabadan ortiq xuruj qiladigan gemorragik sindromlar.
- ! 27. Gemofiliya.
- ! 28. Talassemiya.

! 29. Tug‘ma immunitet tanqisligi holatlari: og‘ir mujassamlashtirilgan antitanachalar yetishmovchiligi ustun bo‘lgan immunitet tanqisligi holatlari, polimorfyadroli neytrofillar funksional buzilishlari, septik granulamatoz — jigar, o‘pka, limfa tugunlari va boshqa a’zolarning qaytalanib turuvchi bakterial shikastlanishi bilan kechishi.

! 30. OITS — orttirilgan immunitet tanqisligi sindromining IV bosqichi.

! 31. Bullyoz epirdemioliz.

! 32. Kistozli fibroz (mukovissidoz): 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar doimiy yordamga muhtoj; 7 yoshdan katta bolalarda — og‘ir asoratli holatlarda.

! 33. Ichki a’zolar faoliyatining buzilishlari, psixomotor va nutqiy rivojlanishda orqada qolish bilan kechuvchi irsiy glikogen to‘planishi va glikosfingolipid metabolizmining buzilishi kasalliklari:

Pompe kasalligi;

Goshe kasalligi;

Fabri kasalligi;

Krabbe kasalligi;

Niman-Pik (A va V turi) kasalligi;

Mukopolisaxaridozlar.

! 34. Ichki a’zolar faoliyatining buzilishlari, psixomotor va nutqiy rivojlanishda orqada qolish bilan kechuvchi Daun kasalligi.



Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 17 fevral kunida “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (PF-74-son, 17.02.2022 y.).

6. Har yili 500 nafargacha nogironligi bo‘lgan yoshlarga subsidiya ajratiladi



Qarorga ko‘ra, 2022 yil 1 yanvardan Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga har bir xodim uchun 6 oyda BHMning 1,5 baravarida subsidiya beriladi.

2022 yil 1 martdan:

- bolalikdan nogiron bo‘lgan shaxslar va I va II guruh nogironlari daromad solig‘i bo‘yicha imtiyoz mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravaridan 3 baravarigacha oshiriladi;
- 2024 yil 1 martgacha ish beruvchilarga nogironlar uchun to‘langan ijtimoiy soliq Davlat budgetidan to‘liq qaytarib beriladi.

Endilikda davlat buyurtmachilarini nogironlar jamoat birlashmalari bilan ularning mahsulotlarini xarid qilish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishi mumkin.

● Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan har yili 500 nafargacha nogiron yoshlarga quyidagilar uchun subsidiya ajratiladi:

- axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta’lim fanlari va xorijiy tillarni o‘rgatish;
- tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganlarga asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish uchun.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi hisobidan 2022 yildan har yili tanlov asosida 20 nafargacha nogiron yoshlar xorijiy OTMda, onlayn kurslarda ta’lim olishi tashkil etiladi.

2022 yil 1 fevraldan barcha hududlardagi kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda nogironligi bo‘lgan shaxslarni kasb-hunarga o‘rgatish bo‘yicha har chorakda qisqa muddatli kurslar tashkil etiladi.

Bunda, qisqa muddatli kurslarning o‘quv dasturlari mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarni inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

Qarorga ko‘ra, 2022 yil 1 martgacha har bir hududda bittadan DXMdA nogironlarning ularga mos keluvchi lavozimlarda (operator, konsultant, inspektor va boshqalar) ishlashi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

2022 yil 1 sentabrgacha mazkur amaliyot barcha DXMdA joriy qilinadi.

2022 yil 1 iyuldan Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nogironlarni qo‘llab-quvvatlovchi NTTlarga BHMning 200 baravari miqdorida ijtimoiy buyurtma mablag‘lari ajratiladi.

2022 yildan nogironlarni kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha grant miqdori kamida 2 baravarga oshiriladi.

Nogironlar hayotini yaxshilashga qaratilgan eng yaxshi ijtimoiy loyihalarni rag‘batlantirib borish maqsadida 2022 yildan quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha respublika tanlovlari tashkil etiladi:

- ❖ Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan – “Eng yaxshi ijtimoiy loyiha”;
- ❖ Savdo-sanoat palatasi tomonidan – “Eng yaxshi tadbirkor”;
- ❖ Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan – “Eng yaxshi talaba”;
- ❖ Turizm va sport vazirligi tomonidan – “Eng yaxshi sportchi”;
- ❖ Madaniyat vazirligi tomonidan – “Eng yaxshi kitobxon”;
- ❖ Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan – “Eng yaxshi ish beruvchi”.

❖ Tanlov natijalari har yili “3 dekabr – Xalqaro nogironlar kuni” arafasida e’lon qilinadi hamda g‘oliblarga BHMning 100 baravari miqdorida pul mukofoti beriladi.

MA’LUMOT UCHUN!!!

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-iyun kunidagi “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonuniga ko‘ra, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilingan.



Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabr kunida “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-57-son qarori.

IV. NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING TA’LIM OLISH HUQUQLARI



7. Oliy ta’lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘sishcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilinadi.

✍ Oliy ta’lim muassasalariga abiturientlarni qabul qilishning umumiyligi soniga nisbatan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qo‘sishcha ikki foizli davlat granti kvotalarining (keyingi o‘rinlarda qo‘sishcha kvota deb ataladi) oliy ta’lim muassasalari kesimidagi taqsimoti tizimida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar tomonidan shakllantirilib, har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi tegishli qarori qabul qilinganidan so‘ng ikki hafta muddatda Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat komissiyasiga (keyingi o‘rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) taqdim etiladi.

✍ Oliy ta’lim muassasalariga abiturientlarni qabul qilishning umumiyligi soniga nisbatan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qo‘sishcha kvotalarining oliy ta’lim muassasalari kesimidagi taqsimoti ikki hafta muddatda Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

✍ Oliy ta’lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘sishcha kvota asosida o‘qishga qabul qilish toifasiga umumiy o‘rta ta’lim (11-sinf negizida) yoki o‘rta maxsus ta’lim tashkiloti yoxud boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar mifik tabʼini tugatganligi haqidagi hujjatga hamda I va II guruh nogironligi to‘g‘risida belgilangan tartibda berilgan shakldagi ma’lumotnomaga ega I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek nogironligi bo‘lgan bolalar kiradi.

✍ Oliy ta’lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘sishcha kvota asosida o‘qishga qabul qilish kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon) natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.

 Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ajratilgan qo‘sishimcha kvotalar asosida qabul qilinmagan abituriyentlar to‘plagan ballari bilan mazkur ta’lim yo‘nalishida umumiy tartibda tanlovda ishtirok etadi.

 Qabul jarayonida oliy ta’lim muassasasi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining (keyingi o‘rinlarda Sog‘liqni saqlash vazirligi deb ataladi) hududiy boshqarmasi vakillaridan iborat tarkibda oliy ta’lim muassasasida nogironligi bo‘lgan shaxslardan hujjatlar qabul qilish komissiyasi tashkil etiladi.

 Quyidagilar nogironligi bo‘lgan shaxslardan hujjatlarni qabul qilish komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilanadi:

nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish;

nogironligi bo‘lgan shaxslardan ariza va hujjatlarni qabul qilish.

 Abituriyent oliy ta’lim muassasasining qabul komissiyasiga taqdim etishi lozim bo‘lgan hujjatlarga qo‘sishimcha ravishda nogironligi bo‘lgan shaxslar nogironlikni tasdiqllovchi hujjatning aslini shaxsan (yoki ishonchli vakili tomonidan) ko‘rsatgan holda, nusxasini taqdim etishi talab etiladi.

 Barcha abituriyentlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining (keyingi o‘rinlarda Davlat test markazi deb ataladi) abituriyentlar bazasiga kiritiladi.

 Davlat test markazi har yili 16 iyulga qadar nogironligi bo‘lgan abituriyentlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Sog‘liqni saqlash vazirligiga o‘rganib chiqish uchun taqdim etadi.

 O‘rganish natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan har yili 20 iyulga qadar Davlat test markaziga ma’lum qilinadi.

 O‘rganish natijalariga ko‘ra nogironligi tasdiqlanmagan shaxslar oliy ta’lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘sishimcha ikki foizli davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon)ga qo‘yilmaydi.

 Nogironligi bo‘lgan shaxslar tomonidan kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon) oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga qabul qilish bo‘yicha belgilangan tartiblarga muvofiq topshiriladi.

 Kirish imtihonlarida to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ballning 30 foizidan kam bo‘lmagan ball to‘plagan nogironligi bo‘lgan shaxslar ballar ketma-ketligiga qat’iy rioya etilgan holda, qo‘srimcha ikki foizli davlat granti kvotalari doirasida talabalikka tavsiya etiladi.



Asos: *Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi 417-sodan qaroriga ILOVA Oliy ta’lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘srimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida NIZOM.*



8. Nogironlarning repetitor xarajatlari qoplab beriladi

Reglamentga ko‘ra, nogiron yoshlarga nodavlat ta’lim tashkilotlarida kasb-hunar, dasturlash, umumta’lim fanlari va xorijiy tillarni o‘rgatish, zarur hollarda yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun BHMning 50 baravarigacha (15 mln so‘mgacha) subsidiya ajratiladi.

Subsidiya olish uchun istalgan davlat xizmatlari markaziga murojaat qilinadi yoki YaIDXP (<https://my.gov.uz/uz>) orqali davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro‘yxatdan o‘tiladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

❖ o‘qish xarajatlari uchun subsidiya olishda:

- ariza bolaning qonuniy vakili tomonidan berilsa, uning shaxsiy identifikatsiya raqami va bolaning qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat;
- nodavlat ta’lim tashkiloti tomonidan ariza beruvchini o‘qitish to‘g‘risida shartnomaning elektron nusxasi;

❖ yashash va transport xarajatlari uchun subsidiya olishda:

- yo‘l xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlarning elektron nusxalari;
- ijara shartnomasi va uning soliq organlarida hisobga qo‘yilganligi haqidagi bildirishnomaning elektron nusxasi.

!Davlat xizmati bepul ko‘rsatiladi.

● Ariza 3 ish kunida ko‘rib chiqilib:

- subsidiya ajratish haqida elektron tizimga ma’lumot kiritiladi va bu haqida ariza beruvchiga SMS-xabarnoma yuboriladi;
- nodavlat ta’lim tashkiloti joylashgan hududdagi mahallaning yoshlari yetakchisi zimmasiga ariza beruvchining nodavlat ta’lim tashkilotida o‘qishini joyiga chiqqan holda monitoring qilish vazifasi yuklatiladi.

❖ Davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida ariza beruvchilarga oid ma’lumotlar sir saqlanadi.

 **Bundan tashqari mazkur qarorga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan yoshlarga asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish tartibi belgilgan.**

 Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan nogironligi bo‘lgan har bir yoshga uning talabiga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo‘lgan miqdorda subsidiya ajratiladi.

 Subsidiya har yili arizalar topshirish ketma-ketligi bo‘yicha ushbu Qaror talablariga to‘liq mos kelgan 500 nafar nogironligi bo‘lgan shaxsga ajratiladi.

 Joriy yilda 500 nafar talabgorga subsidiya ajratilgandan so‘ng subsidiya berish uchun ariza qabul qilish to‘xtatiladi.

 Subsidiya ajratilgunga qadar, biroq ketma-ketligi bo‘yicha subsidiya ajratilgan talabgorlardan keyin ariza topshirgan shaxslar keyingi yil uchun ro‘yxatga qo‘yilmaydi hamda subsidiya olish uchun kelgusi yilda yangidan murojaat qiladi.

 Ajratilgan subsidiyalar soni haqidagi ma’lumotlar Agentlik tomonidan yoshlarportali.uz elektron platformasiga doimiy ravishda kiritib boriladi.



Asos: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 iyun’ kunida “Nogironligi bo‘lgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ-341-son Qarori.

Nogironligi bo‘lgan yoshlarga asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish

SXEMASI

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Nogironligi bo‘lgan yosh fuqaro	Asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratishni so‘rab davlat xizmatlari markaziga murojaat qiladi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali Yoshlar ishlari agentligiga bevosita ariza yuboradi.	Tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgandan boshlab bir yuz sakson kun davomida
2-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Ariza beruvchi nomidan so‘rovnomaga va unga ilova qilingan hujjatlarni Yoshlar ishlari agentligiga yuboradi.	O‘n daqiqa ichida
2-bosqich	Yoshlar ishlari agentligi	Taqdim etilgan hujjatlardagi ma’lumotlar asosli ekanligi tasdiqlanganda, murojaatni ariza beruvchining yashash joyidagi mahalladagi yoshlar yetakchisiga yuboradi.	Hujjatlar kelib tushgandan so‘ng ikki ish kunida
4-bosqich	Mahalladagi yoshlar yetakchisi	Ariza beruvchining murojaatidagi ma’lumotlar to‘g‘riligini o‘rganib, unga subsidiya ajratish haqida tavsiya yoki ajratishni rad etish haqida xabarnoma tayyorlaydi hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo‘limiga elektron shaklda yuboradi.	Murojaat kelib tushgandan so‘ng besh ish kunida
5-bosqich	Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi	Agentlikning tuman (shahar) bo‘limi yoshlar yetakchisining tavsiyasini ilova qilgan holda ariza beruvchiga tegishli subsidiya ajratish yoki ajratishni rad etish to‘g‘risida Agentlikka so‘rov yuboradi. Agar mahalladagi yoshlar yetakchisi ariza beruvchiga subsidiya ajratishni rad etish haqida asossiz	Murojaat kelib tushgandan so‘ng ikki ish kunida

		ravishda xabarnoma bersa, ariza beruvchining murojaati belgilangan talablarga muvofiq bo‘lsa, Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi uning murojaatini qanoatlantrish to‘g‘risida tavsiya berish huquqiga ega bo‘ladi.	
6-bosqich	Yoshlar ishlari agentligi	<p>1. Taqdim etilgan hujjatlarga asosan ariza beruvchiga subsidiyani to‘lash yoki uni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.</p> <p>2. Asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiyani Yoshlar ishlari agentligining tuman(shahar) bo‘limi hisobvarag‘iga o‘tkazib beradi, bu haqida elektron tizimga ma’lumot kiritadi hamda ariza beruvchiga SMS-xabarnoma yuboradi.</p>	Mahalladagi yoshlar yetakchisi tavsiyasi kelib tushgandan so‘ng uch ish kunida
7-bosqich	Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi	Subsidiyani asbob-uskunalar yoki mehnat qurolini xarid qilish uchun realizatsiya qiluvchi tashkilotning hisobvarag‘iga o‘tkazib beradi.	Subsidiya kelib tushgandan so‘ng besh ish kunida
8-bosqich	Ariza beruvchi	Realizatsiya qilingan tashkilotdan asbob-uskuna yoki mehnat qurolini mahalladagi yoshlar yetakchisi ishtirokida qabul qiladi.	Subsidiya kelib tushgandan so‘ng
9-bosqich	Mahalladagi yoshlar yetakchisi	<p>1. Asbob-uskuna yoki mehnat qurolini qabul qilish va topshirish bo‘yicha dalolatnomani tuzadi.</p> <p>2. Dalolatnomani Yoshlar ishlari agentligiga topshiradi.</p>	Subsidiya realizatsiya qiluvchi tashkilotga o‘tkazilgandan so‘ng

V. NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING BOSHQA HUQUQLARI



9. Nogironligi bo‘lgan shaxslar davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanadi

Qarorga muvofiq, 2023 yilda:

- muhtoj shaxslar zamonaviy oyoq protez-ortopediya buyumlari bilan;
- “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan va I guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar son protezi, boldir protezi va oyoq kamari ortoped apparatlari bilan bepul ta’milnadi.

郁 2023 yil 1 sentabrdan nogironligi bo‘lgan shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlashda tibbiy xulosa talab qilinmaydi.

郁 I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar va ularga g‘amxo‘rlik qiluvchilar davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanadi, mansabdor shaxslar qabuliga navbatsiz kiradi.

郁 2023 yil 1 maydan shifoxonalarda davolanayotgan nogironligi bo‘lgan bolaga g‘amxo‘rlik qilayotgan shaxslarga:

- bolaning yonida bo‘lish uchun sharoit yaratiladi;
- mazkur davr uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi va bepul ovqat beriladi.

郁 Pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari bolani nogironligi bo‘lgan shaxs deb topganda ularga pensiya tayinlashda qaytadan tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborish bekor qilinadi.

郁 “Yuridik yordam” axborot tizimida nogironligi bo‘lgan shaxslarga bepul huquqiy yordam berish uchun alohida murojaat bo‘limi yaratiladi.

 Qarorga ko‘ra, 2023 yil 1 iyungacha nogironligi bo‘lgan shaxslar va ularga g‘amxo‘rlik qiluvchilarga berilgan imtiyozlarning yagona ro‘yxati shakllantiriladi.

 Mazkur ro‘yxat “Advice.uz” huquqiy portaliga joylashtiriladi.

 2023/2024 o‘quv yilidan “Maxsus pedagogika, defektologiya” yo‘nalishida magistratura uchun to‘liq davlat granti beriladi.

 2023/2024 o‘quv yilida:

- ✓ abiturientlar uchun mo‘ljallangan qabul tartibiga oid ma’lumotlar nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay formatda bo‘ladi;
- ✓ bunda videoroliklar surdotarjima yoki subtitrlar bilan namoyish etiladi.

 O‘qiyotgan nogironligi bo‘lgan talabalarga ta’lim jarayonida ko‘maklashish uchun uning yaqinlaridan biriga OTMdA yonida birga bo‘lish uchun sharoit yaratiladi.

 Joriy yilda Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi va uning hududiy markazlari robotlashtirilgan lokomat majmuasi va boshqa zamonaviy reabilitatsiya uskunalari bilan ta’minlanadi.

 Qarorga ko‘ra shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.



Asos: *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 fevral kunida "Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-74-sون Qarori.*

10. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning soliq imtiyozlari



◆ Qat’iy belgilangan soliq stavkasi to‘lovchisi I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat’i nazar, oyiga qat’iy belgilangan miqdordagi **soliqning 50 foizini**, biroq BHMning **50 foizidan ko‘p bo‘ligan miqdorda to‘laydi**.

◆ Urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar mulkida bo‘lgan mol-mulk soliq solistidan ozod etiladi.

◆ I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar mulkida bo‘lgan mol-mulk 60 kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi.

◆ Urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar hamda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar yer solig‘idan ozod etiladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi.



Asos: Soliq kodeksining 421-moddasi



11. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtotransport vositalari to‘xtab turish joylari tashkil etiladi

to‘xtab turish joylari tashkil etiladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar avtotransport vositalarining to‘xtab turish joylari to‘xtab turish joyi umumiyligi maydonining kamida 5 foizini (kamida 2 ta joy) tashkil etishi lozim.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar avtotransport vositalarining to‘xtab turish joylariga Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sod qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalariga muvofiq «5.15. To‘xtab turish joyi» va «7.17. Nogironlar» yo‘l belgilari o‘rnatalindi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtotransport vositalari uchun ajratilgan to‘xtab turish joylaridan «Nogiron haydovchi boshqarayotgan avtomobil» taniqlik belgisi o‘rnatalgan avtotransport vositasini boshqarayotgan I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar — nogironlikni tasdiqlovchi tibbiy ma’lumotnomasi hamda 16 yoshgacha nogiron bolasi bo‘lgan ota-onalar (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) — 16 yoshgacha nogiron bola uchun tayinlangan tegishli pensiya guvohnomasi bo‘lganda foydalanishi mumkin.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtotransport vositalari uchun ajratilgan to‘xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun haq olinmaydi.



Asos: *Nogironligi bo‘lgan shaxslar avtotransport vositalarining to‘xtab turish joylariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi NIZOM (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 7 avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3048)*



Eslatma: Nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘zlarining haq-huquqlarinini buzilgan deb hisoblasa quyidagi telefon raqamlariga qo‘ng‘iroq qilishlari mumkin:

ISHONCH TELEFON RAQAMLARI:

- ❖ *O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi:* **1007**
- ❖ *Qashqadaryo viloyat prokuraturasi:* **(75) 220-07-12**
- ❖ *O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi:* **1008**
- ❖ *Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi:* **(75) 221-28-23**
(75) 230-01-76

**UNUTMANG, SIZNING HUQUQLARINGIZ
QONUN HIMOYASIDA !!!**

MUNDARIJA

1. I BOB. Asosiy tushunchalar.....	4
2. II BOB. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mulkiy huquqlari.....	5-9.
3. III BOB. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning kasbiy huquqlari.....	10-17.
4. IV BOB. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqlari.....	18-24.
5. V BOB. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning boshqa huquqlari.....	25-28.
6. Ishonch telefon raqamlari.....	29.

**QASHQADARYO VILOYAT
ADLIYA BOSHQARMASI**

**NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR UCHUN
QONUNCHILIKDA BELGILANGAN IMTIYOZ VA
KAFOLATLAR BO‘YICHA QO‘LLANMA**

O‘zbek tilida

Nashr uchun mas‘ul:

O‘. Ostanov

Tuzuvchi:

J. Zoxidov

Muharrir:

S. Turapov

